



## O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING MA'NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI.

*Mirzarahimova Sarvinoz O'ktamjon qizi*

*Nizomiy nomidagi O'zMPU Professional ta'lim va san'at fakulteti*

*Musiqa ta'lim yo'nalish talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Axborot xavfsizligining jamiyat hayotidagi o'rni, uning yoshlar ongiga ta'siri, zararli axborot oqimlariga qarshi kurashishda ma'naviy omillarning ahamiyati hamda davlat tomonidan yaratilgan huquqiy mexanizmlar yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida axborot tahdidlariga qarshi samarali choralar va media savodxonlikni oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Axborot xavfsizligi, ma'naviyat, huquqiy asoslar, kiberxavfsizlik, dezinformatsiya, media savodxonlik, axborot madaniyati, qonunchilik, axborot tahdidlari.

### LEGAL AND SPIRITUAL FOUNDATIONS OF INFORMATION SECURITY IN UZBEKISTAN.

**Abstract:** This article analyzes the spiritual and legal foundations of information security in Uzbekistan. It highlights the role of information security in the life of society, its impact on the minds of youth, the importance of spiritual factors in combating harmful information flows, and the legal mechanisms created by the state. Furthermore, effective measures against information threats and issues of increasing media literacy in the context of digital technology development are examined.



**Keywords:** Information security, spirituality, legal foundations, cybersecurity, disinformation, media literacy, information culture, legislation, information threats.

## **ПРАВОВЫЕ И ДУХОВНЫЕ ОСНОВЫ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В Узбекистане.**

**Аннотация:** В данной статье анализируются духовные и правовые основы информационной безопасности в Узбекистане. Освещаются роль информационной безопасности в жизни общества, ее влияние на сознание молодежи, значение духовных факторов в борьбе с вредоносными информационными потоками, а также созданные государством правовые механизмы. Также рассматриваются вопросы эффективных мер против информационных угроз и повышения медиаграмотности в условиях развития цифровых технологий.

**Ключевые слова:** Информационная безопасность, духовность, правовые основы, кибербезопасность, дезинформация, медиаграмотность, информационная культура, законодательство, информационные угрозы.

### **KIRISH**

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot jamiyat taraqqiyotining asosiy strategik resurslaridan biriga aylanib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida inson faoliyatining deyarli barcha sohalari — ta'lim, iqtisodiyot, siyosat va madaniyat axborot muhitiga bevosita bog'lanib qoldi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi misli ko'rilmagan darajada tezlashib, global axborot makoni shakllandi. Bu jarayon esa axborotning nafaqat ijobiy, balki salbiy ta'sirini ham keskin oshirdi.



Ilmiy manbalarda axborot xavfsizligi tushunchasi shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan kompleks tizim sifatida talqin etiladi [1, 10–12-bet]. Ushbu tushuncha faqat texnik himoya vositalarini emas, balki huquqiy, tashkiliy va ma'naviy mexanizmlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli axborot xavfsizligi ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiluvchi murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Zamonaviy davrda axborot tahdidlari shaklan va mazmunan tobora murakkablashib bormoqda. Xususan, kiberhujumlar, zararli dasturlar, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, soxta axborotlar (feyk yangiliklar) hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan axborot manipulyatsiyalari keng tarqalmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bunday tahdidlar nafaqat texnologik tizimlarga, balki inson ongiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy barqarorlikka xavf tug'diradi [2, 22–25-bet].

Shu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligi masalasi bugungi kunda milliy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ko'plab davlatlar qatori O'zbekistonda ham axborot xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Mamlakatda axborot makonini himoya qilish, fuqarolarning axborotdan xavfsiz foydalanish huquqlarini ta'minlash hamda zararli axborot oqimlarining oldini olishga qaratilgan huquqiy asoslar izchil ravishda shakllantirilmoqda [4, 5–7-bet].

Xususan, O'zbekistonda "Axborotlashtirish to'g'risida", "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlar hamda kiberxavfsizlikka oid normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, axborot sohasini tartibga solishning mustahkam tizimi yaratilgan. Ushbu hujjatlar orqali axborotdan foydalanish jarayonida shaxsiy daxlsizlikni ta'minlash, axborot tizimlarini himoya qilish va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlari belgilab berilgan [5, 3–5-bet].

Biroq axborot xavfsizligini ta'minlashda faqat huquqiy choralar yetarli emas. Bu jarayonda ma'naviy omillarning roli nihoyatda muhimdir. Chunki



insonning axborotni qabul qilishi, uni tahlil etishi va baholashi uning dunyoqarashi, bilim darajasi va ma'naviy qadriyatlariga bevosita bog'liq. Shu sababli yoshlar orasida media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda axborot madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [3, 6–9-bet].

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, ma'naviy barkamollik axborot xurujlariga qarshi eng samarali “ichki himoya vositasi” hisoblanadi. Ya'ni, yuqori ma'naviyatga ega shaxs zararli axborotni tanlay oladi, uni tanqidiy tahlil qiladi va salbiy ta'siriga tushib qolmaydi. Shu jihatdan, axborot xavfsizligi masalasi nafaqat texnologik yoki huquqiy muammo, balki ijtimoiy-ma'naviy muammo sifatida ham qaralishi lozim [6, 14–16-bet].

Shunday qilib, zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash huquqiy, texnologik va ma'naviy omillarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Mazkur maqolada aynan O'zbekistonda axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Axborot xavfsizligi masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, u turli yo'nalishlarda — texnologik, huquqiy va ma'naviy jihatlar asosida o'rganiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot xavfsizligi tushunchasi dastlab texnik himoya vositalari bilan bog'liq holda qaralgan bo'lsa, hozirgi kunda u kengayib, ijtimoiy va ma'naviy omillarni ham qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida talqin qilinmoqda [1, 13–15-bet].

Mahalliy olimlar, xususan S.K. G'aniyev va boshqalar o'z tadqiqotlarida axborot xavfsizligini ta'minlashda tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlab, bunda davlat siyosati, huquqiy baza va texnologik infratuzilmaning o'zaro uyg'unligi muhim ekanligini qayd etadilar [1, 18–20-bet]. Shuningdek, ular axborot



xavfsizligining asosiy komponentlari sifatida maxfiylik, yaxlitlik va mavjudlik tamoyillarini ko'rsatib o'tadi.

Boshqa tadqiqotlarda esa axborot tahdidlari va ularning jamiyatga ta'siri keng tahlil qilingan. Jumladan, zamonaviy ilmiy ishlarda kiberhujumlar, zararli dasturlar va ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ axborotlar inson ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi alohida ta'kidlanadi [2, 26–28-bet]. Ayniqsa, yoshlar orasida tarqalayotgan soxta axborotlar va zararli kontentlarning ta'siri dolzarb muammo sifatida ko'riladi.

Huquqiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha mustahkam normativ-huquqiy baza yaratilgan. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun hamda kiberxavfsizlikka oid hujjatlar axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4–6-bet]. Ushbu qonunlar orqali axborotdan foydalanish, uni himoya qilish va tarqatish jarayonlari huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, bir qator ilmiy tadqiqotlarda axborot xavfsizligining ma'naviy jihatlari ham chuqur o'rganilgan. Xususan, media savodxonlik, axborot madaniyati va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish axborot tahdidlariga qarshi kurashishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi [4, 8–10-bet]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, yuqori ma'naviyatga ega shaxs axborotni tanlab qabul qiladi va zararli ta'sirlardan himoyalana oladi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tahliliy metod orqali mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganilib, axborot xavfsizligining nazariy asoslari tahlil qilindi. Qiyosiy metod yordamida milliy va xorijiy yondashuvlar solishtirildi hamda ularning o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, mantiqiy umumlashtirish metodi orqali axborot xavfsizligining ma'naviy va huquqiy jihatlari bo'yicha umumiy xulosalar shakllantirildi. Tizimli



yondashuv asosida esa axborot xavfsizligi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqilib, uning asosiy elementlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil etildi [5, 11–13-bet].

Natijada, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, axborot xavfsizligini ta‘minlash faqat texnik yoki huquqiy masala emas, balki keng qamrovli ijtimoiy va ma‘naviy jarayon bo‘lib, u kompleks yondashuvni talab qiladi.

### **Muhokama va Natijalar**

Axborot xavfsizligini ta‘minlash bugungi kunda nafaqat texnologik, balki ijtimoiy, huquqiy va ma‘naviy muammo sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi [1, 18–20-bet].

Birinchiidan, axborot xavfsizligining ma‘naviy asoslari muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning axborotni qabul qilish darajasi, uni tanlab olish va tahlil qilish qobiliyati bevosita uning ma‘naviy saviyasi bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ma‘naviy jihatdan yetuk shaxslar turli axborot xurujlariga nisbatan nisbatan barqaror bo‘ladi va zararli axborot ta‘siriga kamroq tushadi [3, 8–10-bet].

Ayniqsa, yoshlar orasida internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasining ortib borishi ularning turli axborot tahdidlariga duch kelish ehtimolini oshirmoqda. Shu sababli media savodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish hamda axborot madaniyatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [7, 12–15-bet].

Ikkinchiidan, axborot xavfsizligining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda bu borada qator qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, ular axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Xususan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun axborot resurslaridan foydalanish va ularni himoya qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydi [4].



Bundan tashqari, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun orqali fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu axborot xavfsizligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [5]. Kiberxavfsizlikka oid normativ hujjatlar esa axborot tizimlari va tarmoqlarni himoya qilish, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish choralarini belgilab beradi [6].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud huquqiy baza axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynasa-da, zamonaviy tahdidlar tez o‘zgarib borayotgani sababli uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur [2, 26–28-bet]. Ayniqsa, xalqaro tajribani o‘rganish va milliy qonunchilikka moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, axborot xavfsizligini ta’minlashda texnologik va tashkiliy choralar ham muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy himoya tizimlari, dasturiy vositalar va monitoring mexanizmlaridan foydalanish axborot tizimlarini turli kiberhujumlardan himoya qilish imkonini beradi. Biroq faqat texnik vositalar bilan cheklanib qolish yetarli emas, chunki inson omili ko‘plab xavfsizlik muammolarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi [1, 15–17-bet].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda axborot xavfsizligini ta’minlashda ma’lum darajada tizimli yondashuv shakllangan. Biroq bu yo‘nalishda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

1. Yoshlar orasida media savodxonlik darajasining yetarli emasligi;
2. Ayrim foydalanuvchilarning axborotdan foydalanish madaniyati pastligi;
3. Kiberxavflar haqidagi bilimlarning yetishmasligi;

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ta’lim tizimida media savodxonlik fanlarini keng joriy etish;
2. Aholining axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish
3. Axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish;



#### 4. Qonunchilikni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish;

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot xavfsizligini ta'minlash faqat bitta yo'nalish bilan emas, balki ma'naviy, huquqiy va texnologik omillarning o'zaro uyg'unligi orqali samarali amalga oshiriladi.

#### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb va murakkab ijtimoiy-huquqiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar ko'lami kengayib, ularning jamiyat va shaxs ongiga ta'siri kuchayib bormoqda. Shu sababli axborot xavfsizligini ta'minlashga kompleks yondashuv zarur hisoblanadi [1, 18–20-bet].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilgan bo'lib, bu borada muhim normativ-huquqiy baza yaratilgan. Jumladan, axborotlashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikka oid qonunchilik hujjatlari axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynamoqda [4], [5], [6].

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot xavfsizligini ta'minlashda faqat huquqiy mexanizmlar yetarli emas. Bu jarayonda ma'naviy omillar, xususan, shaxsning axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash qobiliyati va media savodxonligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori ma'naviyatga ega bo'lgan shaxs axborotni ongli ravishda qabul qiladi, uni tahlil qiladi va zararli axborot ta'siridan himoyalana oladi [3, 8–10-bet].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yoshlar orasida axborotdan foydalanish madaniyatini oshirish, ularning media savodxonligini rivojlantirish hamda kiberxavflarga nisbatan immunitetini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [7, 12–15-bet]. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida zamonaviy



yondashuvlarni joriy etishni, axborot xavfsizligi bo'yicha bilimlarni keng targ'ib qilishni talab etadi.

Shuningdek, zamonaviy axborot tahdidlarining tez o'zgaruvchanligi milliy qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bu borada xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or yondashuvlarni milliy tizimga moslashtirish muhim ahamiyatga ega [2, 26–28-bet].

Umuman olganda, axborot xavfsizligini ta'minlash samaradorligi huquqiy, ma'naviy va texnologik omillarning o'zaro uyg'unligi bilan belgilanadi. Faqatgina ushbu omillar birgalikda qo'llanilgandagina jamiyatda barqaror va xavfsiz axborot muhitini yaratish mumkin bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'aniyev S.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017.
2. G'aniyev S.K. va boshqalar. Axborot xavfsizligi. – Toshkent, 2018.
3. Nigmatov H. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi. “Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2003.
5. O'zbekiston Respublikasi. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi. Kiberxavfsizlik va axborot xavfsizligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2020.
7. Zamonaviy media savodxonlik va axborot madaniyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar to'plami. – Toshkent, 2022.